Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

YORQIN KELAJAK YO‘LIDA YETAKCHI SHAXS RAHBAR BILAN INSTITUT – TARAQQIYOT YO‘LIDA ILM YO‘LIDA FIDOYI RAHBAR

Qudratova Manija Shomansur qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
4-bosqich talabasi
Rektor stipendiyasi sohibi



Annotatsiya: Ushbu maqolada institut rektorining ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lida amalga oshirgan xizmatlari, talabalar va ustozlar uchun yaratgan imkoniyatlari, institutda shakllangan yangilanishlar muhitidagi tashabbuslari haqida so‘z yuritiladi. Ayniqsa, yosh avlodni rag‘batlantirishga qaratilgan “Rektor stipendiyasi”, taqdirlash marosimlari va ilm-fanga e’tibor markazida bo‘lgan yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, maqola rektorning tug‘ilgan kuni munosabati bilan samimiy tabrik va ehtirom ifodalarini ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: rektor, ilm-fan, ta’lim, institut, yoshlarga g‘amxo‘rlik, stipendiya, yutuq, tashabbus, fidoyilik, taqdirlash, tug‘ilgan kun, rahbarlik.

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida ta’lim-tarbiya tizimi, ayniqsa oliy ta’lim muassasalarining o‘rni va roli beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Ularning bilimli, iqtidorli va Vatanga sadoqatli bo‘lib voyaga yetishida oliy ta’lim muassasalari va, ayniqsa, ularni boshqarayotgan rahbar shaxslarning o‘rni beqiyosdir. Bu jarayonda esa har bir institutning yutuq va yondashuvlari, avvalo, uning rahbari – rektorining bilimdonligi, tafakkur doirasi, boshqaruv mahorati va fidoyiligi bilan belgilanadi. Institutimiz rahbari – rektorimiz yuksak mas’uliyatni el-yurt manfaati yo‘lida munosib ado etayotgan, bilim, tajriba va mehr-oqibatni birlashtirgan fidoyi insondir.

Shu jihatdan qaraganda, bizning institutimizda kechayotgan har bir yangilik, har bir ezgu o‘zgarish zamirida aziz rektorimiz – ilm-ma’rifat, halollik va xalqparvarlik





timsoli bo‘lgan insonning mehnatlari, tashabbuslari va jonbozligi mujassamdir. U kishining har bir harakati, har bir qarori institut hayotini yanada yuksaltirish, talabalar uchun qulay sharoitlar yaratish, professor-o‘qituvchilar salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, ilm-fanni taraqqiy ettirish yo‘lidagi yuksak fidoyilik namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Rektorimiz o‘z faoliyati davomida institut ta’lim jarayonlariga ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, akademik muhitda shaffoflik va adolat tamoyillarini mustahkamlash borasida ulkan yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, talabalarning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar, o‘quv binolari va kutubxonalarning yangilanishi, zamonaviy laboratoriyalar bilan jihozlanishi – bularning bari rektorimizning oqilona boshqaruvi natijasidir.

Institutda ilk bor joriy etilgan “Rektor stipendiyasi” – bu nafaqat rag‘bat, balki iqtidorli va faol yoshlarga bo‘lgan ishonchning timsolidir.



Ushbu stipendiya orqali har bir talaba o‘zining izlanish va intilishlariga yanada mas’uliyat bilan yondashmoqda, o‘z kelajagiga ishonch bilan qaramoqda. Rektor stipendiyasining joriy etilishi yoshlar orasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirib, ularni muntazam rivojlanishga undamoqda.

Shuningdek, har yili o‘tkaziladigan tadbirkor yoshlar tanlovlari, innovatsion g‘oyalar yarmarkasi, fan olimpiadalari va sport musobaqalari doirasida ko‘rsatilgan har bir yutuq alohida taqdirlanmoqda. Talabalar muvaffaqiyatlari institut rahbariyatining e’tiboridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, rektor ishtirokida o‘tkaziladigan tantanali mukofotlash marosimlari yoshlar qalbida o‘ziga xos g‘urur, ilhom va mas’uliyat uyg‘otmoqda.

Mana shunday ezgu ishlar va yuksak tashabbuslar bilan el e’tiboriga sazovor bo‘lgan aziz rektorimizni bugungi tug‘ilgan kunlari bilan chin qalbimizdan muborakbod etamiz!

Hurmatli rektorimiz, sizni nafaqat institut jamoasi, balki minglab talabalarning qalbi sizni bilimdon, oqil, mehribon va adolatparvar rahbar sifatida e’tirof etadi. Sizni bugungi go‘zal ayyom – tavallud kuningiz bilan samimiy qutlaymiz! Hayotingizni ilm-fan, ta’lim va Vatan ravnaqi yo‘liga bag‘ishlaganingiz, yoshlarga bergan mehringiz, ustozlik saboqlaringiz, keng dunyoqarashingiz uchun sizga cheksiz minnatdorchilik bildiramiz.

Yanada katta zafarlar, bardavom salomatlik, ilohiy kuch-quvvat va el-yurt xizmatidagi fidoyiligingizda bardavom



bo‘lishingizni tilaymiz. Har doim sog‘-omon bo‘ling, aziz rektorimiz!

Institut jamoasi va barcha talabalar nomidan chuqur hurmat va ehtirom ila!